



TALABALARNING NUTQIY VA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI MUSTAQIL TA'LIM VA O'QUV TOPSHIRIQLARI ASOSIDA METODIK RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM

Altibayeva Malika Kuvandikovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14737367>

Annotatsiya: Talabalarni nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari asosida takomillashtirishning metodik-didaktik xususiyatlarini metodik rivojlantirish imkoniyatini yaratilishi lingvopedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish ilmiy-metodik asoslab berilgan. Talabalarning fanga qiziqishi, hamda bir o'quv topshirig'ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko'nikmani rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo'lishi, talabalarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarga oid topshiriqlarni amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi, topshiriqlarni zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun'iy intellekt bilan to'g'ri muloqot qila olishi, joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi didaktik asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: an'anaviy dars, lingvistik tahlil, ta'lim texnologiyasi, filologik ta'lim, metodika, sun'iy intellekt, didaktika, lingvodidaktika, axborot-retseptiv usuli, ilmiy-metodik asos, induktiv, deduktiv, leksikologiya, tovushni tahlil, yozuv ko'nikmasi.

Oliy ta'lim tizimida an'anaviy dars mashg'ulotlari talabalar, xususan, bo'lajak mutaxassislariga bilim berish, o'quv topshiriqlari orqali ma'lumotlarni yodlash, turli manbalardan olingan jummalarni lingvistik tahlil qilishga mo'ljallangan. Bu esa bugungi zamon talablariga mos kelmay qolmoqda. Hayot insoniyat oldiga turli muammolarni qo'yadi, har bir kishi uni mustaqil hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shu ma'noda pedagogikada muammoli ta'lim texnologiyasi joriy qilindi. Muammoga asoslangan ta'limda o'quv topshiriqlaridan asosan, savol va topshiriqlarning muhim o'rni bor. Muammoli o'qitishning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi bilimlarni tayyor shaklda yetkazmaydi, balki o'qituvchi tomonidan savol yoki topshiriq shaklida muammoli vazifalar qo'yiladi, mashg'ulotni tashkil etuvchi ularni hal qilish yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Bu ham, albatta, savol va topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Mashqlar esa uni o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida aqliy yoki amaliy harakatni takror-takror bajarish demakdir. Bu jarayonda o'z o'rni bilan mashqlar ham ishtirok etadi.

Oliy ta'lim darslik va qo'llanmalarida o'quv topshiriqlarining qo'llanilishini muntazam deb bo'lmaydi, keyingi yillarda yaratilgan darslik va qo'llanmalar o'quv topshiriqlari asosida yaratila boshladi. Masalan, H.Jamolxonov tomonidan nashr qilingan Hozirgi o'zbek adabiy tili darsligida mavzular so'ngida savol va topshiriqlar keltirilgan [4]. 2000 yilga qadar yaratilgan oliy filologik ta'lim uchun yaratilgan o'quv adabiyotlarda o'quv topshiriqlari deyarli uchramaydi. Masalan, U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullaevlarning 1992 yil chop etilgan Hozirgi o'zbek adabiy tili darsligida umuman o'quv topshiriqlari berilmagan [10]. Bunda o'quv topshiriqlarini bajarishda talabalarning mustaqillik darajasiga e'tibor beriladi: – bilimni, ma'lumotni ko'paytirish uchun maxsus topshiriqlar ham beriladi; – bilimlarni turli nutq vaziyatlarida qo'llashga o'rgatuvchi mashq va topshiriqlar ham baravar qo'llaniladi. Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib, unda quyidagi lingvodidaktik talablar bajarilsa, o'quv topshirig'i zamon talabiga mos va samarali bo'ladi: bir o'quv topshirig'ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko'nikmani rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo'lishi; talabalarning o'quv topshiriqlarni amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi; o'quv topshiriqlarini zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun'iy intellekt bilan to'g'ri muloqot qila olishi; o'quv lug'atlaridan mavzu doirasida unumli foydalana olishi. Takomillashtirilgan o'quv topshiriqlari muammoli o'qitishning quyidagi asosiy psixologik-pedagogik maqsadlariga muvofiq kelishi kerak. Talabalarning fikrlash va qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga; talabalarning faol izlanish va mustaqil masalalar yechish jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishlari, natijada bu bilim va ko'nikmalar an'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda mustahkam bo'lishiga; nostandart muammolarni ko'ra oladigan, o'rnata oladigan va hal qila oladigan talabaning faol ijodiy shaxsini tarbiyalashga mos bo'lishi lozim. Ona tili ta'limda faol qo'llanila boshlagan matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda



muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Taniqli olim M.Axmedova har qanday matn tahlilini o'quv topshiriqlari orqali muammoli jarayonga aylantirish mumkin. Bunda savol yoki topshiriqni to'g'ri qo'yish kifoya qiladi, degan g'oyani ilg'or suradi. Haqiqatdan ham bu muammoning yechimi, olingan natijalarni tekshirish, ularni asl faraz bilan taqqoslash, olingan bilim va ko'nikmalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari muhim hisoblanadi [1]. Muammoni muvaffaqiyatli o'rganish shartlarida o'quv topshiriqlarning ishtiroki o'ziga xos bo'ladi: - muammoning mazmuniga qiziqish uyg'otish uchun yetarli savol yoki tayyorlovchi topshiriqlar orqali motivatsiyani ta'minlash; - har bir bosqichda yuzaga keladigan muammolar bilan ishlashning maqsadga muvofiqligini ta'minlash; - muammoni hal qilishda qo'yilgan vazifa va savolning ahamiyati; - talabalar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlarga e'tibor va rag'bat bilan qaralganda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi dialogik do'stona muloqotning o'rnatilishi. Bularning barchasi o'quv topshiriqlar mazmuniga bog'liq, o'quv topshiriqlarining asosini esa bilish faoliyat turi tashkil qiladi. Bu borada I.Ya. Lerner, N. M. Skatkinlarning yondashuvi hammaga ma'lum va mashhurdir [2]. Bilish faoliyatining turi-o'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv sxemasi bo'yicha ishlash orqali talabalar erishadigan bilish faoliyatining mustaqil darajasidir. Bu quyidagi tasnif usullarida farqlanadi: tushuntirish-illyustrativ (axborot-retseptiv); reproduktiv; muammoli taqdimot; qisman-qidiruv (xuaristik); tadqiqot. Axborot-retseptiv usulning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi: bilim talabalarga "tayyor" shaklda taklif etiladi; o'qituvchi bu bilimlarni turli yo'llar bilan idrok etishni tashkil yetadi; talabalar bilimlarni idrok etish (qabul qilish) va tushunishni amalga oshiradilar, ularni xotirasida tuzatadilar. Barcha axborot manbalari (so'z, ko'rgazma va boshqalar.) qabul qilishda ishlatiladi va taqdimot mantig'ini induktiv va deduktiv ravishda ishlab chiqish mumkin. G'. Hamroyevning e'tirofiga ko'ra "O'qituvchining boshqaruv faoliyati bilimlarni idrok qilishni tashkil etish bilan chegaralanadi. O'qituvchilarning o'z talabalarini bilim olishga, fikrlashga undash quroli, ularning faoliyatini, o'zlashtirilishini monitoring qilishda o'lchov bu – o'quv topshiriqlaridir [5]. An'anaviy ona tili ta'limida ham o'qitishning reproduktiv metodidan foydalaniladi. U quyidagi xususiyatlarga ega: bilim talabalarga "tayyor" shaklda taklif etiladi; o'qituvchi bilimlarni muloqot qilibgina qolmay, balki uni bayon etadi; talabalar bilimlarni ongli o'zlashtiradilar, uni tushunadilar va eslab qoladilar. O'zlashtirishning mezon – bilimlarni to'g'ri ko'paytirish; o'zlashtirishning zarur kuchi bilimlarni takror takrorlash orqali ta'minlanadi.

Masalan, **1.6-mashq**. Sinfda lug'at daftariga yozgan so'zlaringizni ma'nolari bilan yod oling [7]. Shu ma'noda savol va topshiriqlar ham yodlash, takroran aytib berishga ixtisoslashib qoladi.

Muammoli ta'lim ta'minlaydi. Bugun Yangi O'zbekistonga ijrochi emas, ijodiy tafakkur sohiblari kerak. Muammoli ta'limning ma'lum bir bosqichida talabalar hali muammolarni o'zlari hal qila olmaydilar va shuning uchun o'qituvchi muammoni tadqiq qilish, uning yechimini boshidan oxirigacha belgilash yo'lini ko'rsatadi. Bu usuldagi talabalar esa ishtirokchilar emas, balki kuzatuvchi bo'lsa-da, bilib olish qiyinchiliklarini hal qilishni o'rganadilar.

Ona tili ta'limida qisman izlanuvchanlik ta'lim metodidan ham foydalaniladi, uning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi: – bilim talabalarga "tayyor" shaklda taklif etilmaydi, ularni mustaqil ravishda chiqarish kerak; – o'qituvchi bilimlarni xabar yoki taqdim etishni tashkil etmaydi, balki turli vositalar orqali yangi bilimlarni izlanadi;– o'qituvchi rahbarligida talabalar mustaqil mulohaza yuritadilar, paydo bo'lgan bilish muammolarini hal qiladilar, muammoli vaziyatlarni yaratadilar va hal qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar va natijada ongli mustahkam bilim hosil qiladilar. O'quv topshiriqlari oliy ta'lim darslik va qo'llanmalarining ham asosiy qismini tashkil etishi kerak. Oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlarini tuzish va ulardan foydalanish bo'yicha alohida fanlar tashkil etilishi lozim. Mavjud o'quv predmetlarning mavzu va yo'nalishidan kelib chiqib, oliy ta'limdagi o'quv topshiriqlarni mazmun jihatidan 3 ga ajaratish mumkin:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili fani bo'yicha tuziladigan o'quv topshiriqlari.
2. O'zbek tili fani bo'yicha o'quv topshiriqlari.
3. O'zbek tili o'qitish metodikasi fani bo'yicha tuziladigan o'quv topshiriqlar.

Bu o'rinda filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi o'qitiladigan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" va boshqa mutaxassislik fanlari mazmuni tilshunoslik ilmi asoslarini o'rgatish nazarda tutiladi. Shu ma'noda bu borada tuziladigan o'quv topshiriqlari talabalarni fikrlashga undaydigan, bir fikrni ikkinchi bir fikr bilan taqqoslash



va yakuniy xulosani ayta oladigan nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Mavjud darsliklardagi o'quv topshiriqlari ma'lumotlarni yodlab, keyin yana qayta aytib berishga mo'ljallangan:

Masalan, A.Jamolxonovning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida quyidagi o'quv topshiriqlaridan foydalanilgan:

1. Leksikologiya nimani o'rganadi?
2. Leksika nima?
3. Leksikologiyaning maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot bering.
4. Leksikologiyaning qanday turlari bor?
5. Leksikologiya tilshunoslikning qaysi bo'limlari bilan aloqada bo'ladi? Sabablari? [4].

Yuqoridagi o'quv topshiriqlari orqali talabani ijodiy ishlashga o'rgatmaydi. Professor B.Mengliev muallifligida umumta'lim maktablari uchun yaratilgan darsliklarda o'qitishning qisman izlanuvchanlik va asosan, tadqiqot (izlanuvchanlik) metodlariga tayanilgan, uning mohiyati quyidagicha: maslan, "**Uyga vazifa**" ruknida mashqning sharti talabani mustaqil shug'illanishga undaydi [7]. Izlanuvchanlik quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: – o'qituvchi talabalar bilan birgalikda muammoni shakllantiradi, uning yechimi auditoriyada dars mobaynida aniqlanadi; – bilim talabalar bilan bo'lishilmaydi. Talabalar muammoni o'rganish jarayonida uni mustaqil oladilar, olingan javoblarning turli versiyalarini taqqoslaydilar. Natijalarga erishish uchun vositalar ham talabalar tomonidan belgilanadi; – o'qituvchining faoliyati muammoni hal qilish jarayonini operativ boshqarish; – ta'lim jarayoni yuqori intensivligi bilan ajralib turadi, o'qitishga qiziqish ortadi va olingan bilimlar chuqur farqlanadi. O'quv topshiriqlari oliy ta'lim darsliklarining ham asosiy qismini tashkil qilar ekan, darslik masalasiga ham qisman to'xtalish lozim. Ta'lim mazmuni o'quv adabiyotlarida (darsliklar, ma'lumotnomalar, qo'shimcha o'qish uchun kitoblar, atlaslar, xaritalar, topshiriq va mashqlar to'plamlari, bosma asosida daftarlar va boshqalar) batafsil bayon etilgan. O'quv adabiyotlarining asosiy turi darslik – bo'lajak mutaxassislar uchun muhim bilim manbai, o'rganishning asosiy vositalaridan biridir. Unda o'qitish nazariyasi va metodikasi, talaba shaxsining ma'naviy mohiyati shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, umumiy madaniyat va inson faoliyati tajribasi doirasi aks etadi. Zamonaviy oliy ta'lim darsliklari barqaror va mobil bo'lishi kerak. Barqarorlik talablariga muvofiq ravishda darslik mustahkam asosga ega bo'lishi kerak. Mobillik asosiy dizaynni buzmasdan yangi bilim, ko'nikmalarni tezda joriy etish imkoniyatini beradi. Darslikning tarkibiga matn (turli nutq uslubiga doir matnlar-tavsiflar, matnlar-qissa va matnlar-argumentlar) asosiy tarkibiy qism va matndan tashqari yordamchi komponentlar (tashkil etish va o'zlashtirish tuzilmasi) kiradi. Bu o'rinda o'zlashtirish tuzilmasi sifatida o'quv topshiriqlari katta vazifa bajaradi. Darslik o'quv jarayonida talabalarning ongli va faol ishtirokini, o'quv materialining to'liq asosini ta'minlashi lozim. Zamonaviy darslik quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi;- talabalarni mavzularni o'rganishga da'vat etadi, ishtiyoq uyg'otadi; - talabaga axborot, ma'lumotlarni taqdim etishning, qidirib topishning mavjud usullari orqali bilimlarni kengaytirish imkonini beradi; - mashg'ulotning borishi va natijalarini tekshirish, o'z-o'zini baholash va korreksiyalash, shuningdek, zarur ko'nikmalarni hosil qilish uchun o'quv topshiriqlarini bajarish imkoniyatini o'z ichiga oladi. Bir so'z bilan aytganda zamonaviy darslik paravoz sifatida ko'plab axborot manbalarini o'ziga birlashtirishi, ularni tortishi, boshqarishi lozim. Mazkur jarayonda o'quv topshiriqlari paravozni o'quv lug'atlari, audio, video materiallar, mashq va topshiriqlar to'plami, testlar, ko'rgazmali vositalar, elektron resurslar ortilgan vagonlarga bog'lay olishi, ulardan foydalanishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi kerak. O'quv topshiriqlari oliy ta'limning zamonaviy dars va darsliklarga mos bo'lish uchun ular takomillashtirilishi kerak. Chunki oliy ta'lim tizimining "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "O'zbek tili" darsliklarida ham, savol, mashq va topshiriqlar sifatiga, uning zamon talablariga qay darajada mosligiga e'tibor qaratilmaydi. Bu holat o'zbek tilining talabalar – bo'lajak mutaxassislar tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmay qolishiga olib kelayotgan sabablardan biridir. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, malaka hosil qiluvchi, takrorga asoslangan mashqlar, sinash uchun qo'llanuvchi topshiriqlar, fikrlashga o'rgatuvchi savollar o'zbek tili fan sifatida shakllangan dastlabki yillarda (1930–1940) chop etilgan darsliklarda ham bugun amalda bo'lgan darsliklarda ham uchramaydi [9]. Umumiy mashq atamasi ostida oddiy topshiriq xarakteridagi tavsiyalar o'rin olgan. Oliy ta'lim tizimida ham mashq va topshiriq o'zaro farqlanmaydi. Talabalar o'z nutqiy muammolari ustida mashq



qilmaydi. Topshiriqlar an'anaviy shaklda yodlab aytib berishga ixtisoslashgan. Savollar fikrlashga undamaydi. Shu o'rinda G'.Hamroevning "mashq", "topshiriq" va "savol" atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o'rni hamda ahamiyati haqidagi mulohazalariga e'tibor berish lozim. Metodist-olim dastlab, M. Saidovning o'quv materiallari sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni o'zaro farqlaydi va, ko'pincha, o'qituvchilar o'z ish faoliyatlari davomida "mashq", "topshiriq" va "masala" tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini, pedagogika fanlari doktori Asqar G'ulomovning "mashq ham o'quv topshiriq"ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli," degan fikriga qo'shilishi va topshiriq mashqning bir bo'lagi, u, asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topshini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etgan holda [10] bu borada o'z yondashuvini bayon qiladi, ya'ni o'ziga qadar o'quv topshiriqlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tahlillarda kelingan ilmiy xulosalardan farqli o'laroq, topshiriq mashq tarkibiga emas, aksincha, mashqlar topshiriq tarkibiga kiritilishi, vazifa jihatidan savol va mashqqa qaraganda kattaroq, kengroq tushuncha ekanligi asoslaydi [5]. Bizningcha ham, topshiriq mashqni o'z ichiga oladi, topshiriqlar talabani yo'naltiradi, sinaydi; takrorga asoslangan mashqlar esa ko'nikma va malaka hosil qilish uchun xizmat qiladi. Oliy ta'lim tizimida "Hozirgi o'zbek adabiy tili" "O'zbek tili" fanlarini o'qitishda "Orfografiya" va "Orfoepiya" bo'limlari nutqiy malaka bilan bevosita aloqador bo'lganligi bois ularni o'qitish vositalari ham bir-biriga chambarchas bog'liq. G'.Hamroev to'g'ri ta'kidlaganidaek, *mashq* va *topshiriq* atamalariga o'zgacha yondashish zarur [5]. Darslik va qo'llanmalarda ko'p uchraydigan "mashq", "topshiriq" atamaları o'zaro uyadoshlik hosil qilsa-da, ular orasida sinonimik munosabat yo'q. Yangi mazmunda yaratilgan "O'zbek tili" darsligida o'quv topshiriqlariga yangicha yangicha yondashilgan. Unda talabalarga ko'proq topshiriqlar berilgan. Buning yana bir muhim tomoni shuki, talabaga mustaqil bajarish uchun aniq topshiriq beriladi. Amaldagi aksariyat darsliklarda mustaqil mashg'ulot sifatida savollar beriladi. Uni talaba qisqa fursatda bajarib qo'yishi, amaliy ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. 1- topshiriq: a) matnni o'qing, matn mazmunini to'liq tinglab tushuning; b) matndagi tayanch so'z va iboralarni ajratib yozing; d) matndagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalang. 2- topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling: Ma'muriy [boshqaruvga, ma'muriyatga aloqador] - ma'muriyatga doir. Ma'muriyat yo'li bilan amalga oshiriladigan. Ma'muriy hudud. Viloyat [chekka joy, o'lka] - mamlakatning bir va undan ortiq shaharlarini o'z ichiga oladigan yirik ma'muriy-hududiy bo'linma. O'zbekistonning 12 viloyati. Hudud - ma'lum chek-chegaraga ega bo'lgan, chegara bilan o'ralgan yer; ma'lum davlat, viloyatga tegishli bo'lgan yer, maydon. O'zbekiston hududi.Mahsulot - ishlab chiqarilgan narsa. Yalpi mahsulot. Intellektual inahsulot - ma'naviyat, ilm-fan, texnika sohasidagi izlanishlarning natijalari, adabiyot va san'at asarlari majmui. Eksport - [ingl. export < lot. exportare - chetga (tashqi bozorga) chiqarmoq] - sotish yoki boshqa maqsadlarda chet ellarga mol yoki kapital chiqarish. O'zbekiston kopgina mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatiga ega [6]. Darslikning yutuq tomoni shundaki, o'quv topshiriqlari, o'quv material talabalarning ixtisoslik yo'nalishlariga moslangan. Darslikning mazkur qismida mashq namunalari berilmagan. Umuman, har bir mashg'ulotda mavzuga aloqador mashq, albatta, bo'lishi lozim. Endi "O'zbek tili o'qitish metodikasi" darsliklari mazmuniga to'xtalamiz. Unda o'quv topshiriqlaridan qanday foydalanilishi, mazmuni, shakli, tarkibini ko'rib chiqamiz. Oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari uchun tayyorlangan Ona tili o'qitish metodikasi darsligi mazmunida quyidagi o'quv topshiriqlaridan foydalanilgan:

Savol va topshiriqlar

1. Ona tili o'qitish metodikasining predmeti nimadan iborat?
2. Metodika fani qanday masalalarni o'rganadi?
3. Ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifalarini ta'riflab boring.
4. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining asosiy bo'limlarini aytib bering.
5. Ona tili o'qitish metodikasi fanining metodologik asoslarini izohlang.
6. Ona tili o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligini tushuntiring.
7. Ona tili o'qitish metodikasining o'ziga xos tamoyillari qaysilar? Ularga tavsif bering.
8. Nazariy metod nima va u qanday hollarda tatbiq etiladi?
9. Empirik metodni tushuntirib bering.



10. Eksperiment vazifasiga ko'ra qanday hollarda o'tkaziladi?
11. Ona tilini o'qitish tarixiga tavsif bering.
12. Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlarining turi va mazmunini sharhlung.
13. Boshlang'ich sinflar ona tili davlat ta'lim standarti va dasturiga o'z nuinosabatingizni bildirib taqriz yozing.

14. „Ona tili — boshlang'ich sinflarda o'quv predmeti" mavzusida ma'ruza tayyorlang [8].

Oliy ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning hammasi ham metodist olim bo'lmasligini inobatga olinsa, yuqorida keltirilgan savol va topshiriqlar mazmuni biroz o'zgarishi mumkin.

Navbatdagi topshiriq yo'naltiruvchi xarakterda bo'lib, talabada mustaqil ishlash orqali so'z boyligiga ega bo'lishga va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili ta'limiga qo'yilgan eng muhim talablardan biri bo'lajak mutaxassislar faoliyati orqali talabalarni o'z fikrlarini bayon qilish faoliyatiga tayyorlash [3] ekanligi unutmazlik lozim.

2012 yilda nashr etilgan mazkur darslikda talabalarni baholash bo'yicha ham talabalar – bo'lajak mutaxassislarga yaxshi tavsiyalar, baholash mezonlari sifatida xizmat qiluvchi o'quv material berilgan. O'quv topshiriqlari tuzishda asosan quyidagi mezonlarga tayanish kerak:

Tayyorlov sinflarning ta'lim mazmuni va tashkil etish muddati bir xil bo'lmasa-da, lekin bu davrda bolalarning nutqiy tayyorgarligini o'rganish uchun quyidagilarni aniqlash tavsiya etiladi:

1. O'qish ko'nikmasini aniqlash. a) so'zni sidirg'a o'qiydi; b) bo'g'inlab o'qiydi; d) harflab o'qiydi (noto'g'ri o'qish); e) anchagina harflarni biladi, lekin o'qishni bilmaydi; f) ayrim harflarni taniydi.

2. Yozuv ko'nikmasi. a) hamma harfni yozishni biladi, so'z yozadi (bosma yoki yozma); b) ayrim harflariga yozishni biladi (bosma yoki yozma); d) yozishni um um an bilmaydi.

3. Tovushni tahlil qilishga tayyorgarligi. a) so'zni bo'g'inlarga bo'lmadi; b) so'z yoki bo'g'indagi tovushni ajratadi; d) hamma tovushni to'g'ri talaffuz qiladi; e) ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladi (qaysi tovushlar ekani hisobga olinadi); f) nutqining baland yoki pastligi, diktsiyasiga e'tibor qaratiladi.

4. Og'zaki bog'lanishli nutqi. She'rni yoddan o'qish. a) 3 ta yoki undan ortiq she'rni biladi, uni zavqlanib aytadi; b) 1—2 ta she'rni biladi, aytishga uyaladi; d) birorta she'rni yoddan o'qishni bilmaydi.

5. Og'zaki bog'lanishli nutqi. Ertak aytish. a) bir yoki bir nechta ertakni biladi va aytib bera oladi; b) ertakni biladi va uni aytishga harakat qiladi, lekin ayta olmaydi; d) ertak aytishni bilmaydi, o'rganishga ham harakat qilmaydi.

6. Og'zaki bog'lanishli nutqi. Fikr bayon qilish („Rasmda nimalar ko'rayotganingni aytib ber"). a) 20 so'zdan ortiq bog'lanishli hikoya, bir necha gap tuza oladi; b) 10 tadan 20 tagacha so'z, bir necha gap tuza oladi; d) 10 tagacha so'z bilan bog'lanishli nutq tarzida javob qaytara oladi; e) 3—4 so'z bilan qisqa javob bera oladi [8]. Oliy ta'limda, odatda, muayyan o'quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so'ng ham talaba va o'qituvchining shu o'quv predmeti bo'yicha bilim berish hamda ma'lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o'quv materiallarining, xususan, o'quv topshiriqlarning tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak. Darslik turli xil qo'shimcha vositalar – antologiyalar, mashq va topshiriqlar to'plamlari, lug'atlar, ma'lumotnomalar, darsdan tashqari o'qish uchun kitoblar, atlaslar, tarixiy-geografik xaritalar va boshqalar bilan bog'liq bo'lishi to'ldirilishi kerak. Zamonaviy darsliklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'quv materialini yanada kengaytirilgan rejada beradi, o'quv topshiriqlar orqali eng yangi ma'lumotlar, ma'lumotnoma xarakteridagi ma'lumotlar bilan kengaytiriladi. Darslik bilan ishlashda talabalar qo'shimcha adabiyotlar yordamida tahlil qilish, tanqid qilish, to'ldirish, ularni taqdim etish uslubi va o'rganilayotgan matnni o'zgartirishni o'rganadilar. O'quv topshiriqlari orqali ona tilni o'qitishga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga doir ishlarni faollashtirish; ona til o'qitish uchun ilmiy, metodik, psixologik va pedagogik yordam tizimini rivojlantirish ishlarni takomillashtirish; ona tili ta'limida o'zbek etnolingivistikaning so'nggi yutuqlaridan foydalanish. Amaldagi dastur va darsliklar talabalarni ona tili ta'limi maqsadiga muvofiq muctaqil izlanishga undashi lozim. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma'lumotlar bazasi emas, balki talabaga ona tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o'rinli foydalanishni



o'rgatadigan o'quv topshiriqlari tashkil etmog'i lozim. Chunki oliy ta'lim tizimi maqsad faqat tilshunos tayyorlash emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga yetkazib berishdir.

Talabada nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, lug'at va matn asosida milliy tilni, milliy ma'naviyatni talaba tafakkuriga singdirish, o'z talabasini turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash texnologiyasini ona tili ta'limiga samarali joriy qilish asosiy masalalardan biridir. Oliy ta'limda, odatda, muayyan o'quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so'ng ham talaba va o'qituvchining shu o'quv predmeti bo'yicha bilim berish hamda ma'lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darsliklardagi o'quv materiallarining, xususan, o'quv topshiriqlarning tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki oliy ta'limda joriy etilayotgan yangi modul tizimining asosiy qismi ham baholash va mustaqil ishlashga yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlaridir. Zamonaviy elektron darsliklar paravoz kabi ko'plab axborot manbalarini o'ziga birlashtirishi, ularni tortishi, boshqarishi lozim. Mazkur jarayonda o'quv topshiriqlari paravozni o'quv lug'atlari, audio, video materiallar, mashq va topshiriqlar to'plami, testlar, ko'rgazmali vositalar, elektron resurslar orilgan vagonlarga bog'lay olishi, ulardan foydalanishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi kerak, ta'lim hayotiy muammolarni qanday hal qilishni o'rgatishi kerak. Ona tili ta'limida har bir mashg'ulot orqali beriladigan savol, topshiriq va mashqlar ham xuddi shunday talaba, bo'lajak mutaxasssing hayotiy muammolarini yechishga yo'naltirishi lozim. Oliy ta'lim tizimida o'zbek tili, ona tili o'qitishda, xususan, o'quv topshiriqlarni tuzishda pragmatik yondashuvlardan foydalanish samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova M.E. Mustaqil topshiriqlar bilan ishlash va ularni baholash metodikasi (modul-kredit tizimida tilshunoslik fanlari misolida). Metodik qo'llanma, Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ.T.: 2022. 121 bet
2. Axmedova M.E. Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari (tilshunoslik fanlari misolida) Monografiya. Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ.T.: 2022. 173 bet
3. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. –T.: O'qituvchi, 1996.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili Darslik. –T., 2014. 96-b.
5. Hamroev G'. Ona tili o'qitishning samarali usullari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: Bayoz nashriyoti. 2018. 9-b.
6. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili: Darslik (Iqtisodiyot oliy o'quv yurtlarining bakalavr bosqichi umumiy guruh talabalari uchun) – T.: Moliya instituti. 2019. 528 b.
7. Qodirov M., Ne'matov H. Mengliev B. va bosh, Ona tili 8-sinflar uchun darslik. – T.: Cho'lpon. 2019. 6-b.
8. Qosimova K., Matchonov S.M, G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun Darslik . — T.: "Noshir", - 2009. 18-b.
9. Ramazan Q., Qajjumij X. Grammatik. Sarf. O'rta maktablar ucun darslik. I qism. –T.: Oquvpeddavnasr, 1937. –149 b.
10. Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom-di diss. avtoref.TDPU. –T.: 2000. – 25 b.
11. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qayta ishlangan. to'ldirilgan uchinchi nashr. Darslik –T.: 1992. 400 b.